

KORRUPSIYAGA OID JINOYATLAR: SABABLARI VA SODIR ETISH SHAROITLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Rustambayev Mirzayusup Xakimovich

Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig'i,
yuridik fanlar doktori, professor

Annotatsiya. Maqolada korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablari va ularni yuzaga keltiruvchi shart-sharoitlar tahlil qilingan. Jinoyatchilikning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va huquqiy omillari determinant sifatida o'rganilgan. Ushbu omillarni ilmiy asosda tahlil qilish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish va jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Milliy xususiyatlarni va xalqaro tajribani hisobga olgan holda korrupsiyaga qarshi profilaktik choralar tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, jinoyatchilik, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, huquqiy mexanizmlar, xalqaro tajriba, jamiyat, mansabdor shaxslar, qonunbuzarlik, nazorat, axloqiy qadriyatlar, tahlil, huquqiy madaniyat, siyosiy jarayonlar.

Abstract. The article examines the causes and conditions facilitating corruption crimes. Social, economic, cultural, moral, and legal factors are analyzed as determinants of crime. Effective measures include a scientific analysis of these factors, improving legal mechanisms, and fostering legal awareness in society. Recommendations for preventive actions considering national characteristics and international experience are provided.

Keywords: corruption, crime, socio-economic factors, legal mechanisms, international experience, society, officials, violations, control, moral values, analysis, legal awareness, political processes.

Jinoyatchilik tabiiy holda emas, balki muayyan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy yoki boshqa shart-sharoitlarning ta'siri natijasida shakllanadi. Zamonaviy kriminologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilikning paydo bo'lishi va dinamikasiga ta'sir etuvchi omillar nafaqat qator sabablarning, balki qulay sharoitlarning mavjudligi bilan ham chambarchas bog'liq.

Jinoyatchilikning vujudga keltiruvchi bu sabab va sharoitlar umumiy "kriminogen omil (determinant)" tushunchasi bilan birlashtiriladi. Jinoyatchilikning determinantlari jinoyatchilikni belgilovchi va uning paydo bo'lishida yordam beruvchi sabab va sharoitlar hisoblanadi [13].

Mutaxassislarining fikriga ko'ra, jinoyatchilikni keltirib chiqaruvchi sabablar bir nechta guruhga ajratiladi. Birinchi guruhga ijtimoiy-iqtisodiy omillar kiradi, bular ishsizlik, kambag'allik, ijtimoiy tengsizlik, ta'lim va kasbiy tayyorgarlikning yetishmasligi kabi holatlar bo'lib, ular jinoiy xatti-harakatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Ikkinchi guruhga madaniy va ma'naviy omillar kiradi, ya'ni jamiyatdagi axloqiy qadriyatlar, odatlar va ma'naviy tarbiya darajasi jinoyatchilik darajasini belgilashda muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Qadriyatlar devalvatsiyasi yoki an'anaviy munosabatlar

tizimining buzilishi jinoyatchilikni qo'zg'atuvchi omil bo'lishi mumkin. Uchinchi guruh qonuniy va huquqiy tizimning samaradorligi bilan bog'liq bo'lib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining zaifligi, qonunlarning ijrosi ustidan nazorat yetishmasligi yoki adolatsiz qonunlar jinoyatchilikning oshishiga turtki bo'ladi. To'rtinchi guruh shaxsiy omillardan iborat bo'lib, ular shaxsning ruhiy holati, o'tmishdagi travmalar, ta'lim va tarbiya jarayonidagi kamchiliklar natijasida shaxsiy kriminal xulqni shakllantirishi mumkin. Shu tariqa, jinoyatchilik ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida turli sabab va sharoitlar ta'sirida vujudga keladi.

Quyida korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablari va sodir etilishiga imkon yaratadigan sharoitlarning ilmiy-nazariy asoslarini ko'rib chiqamiz. Tahlillarga ko'ra, 2023-yilda respublika bo'yicha sudlar tomonidan jami 6 535 nafar shaxs (2022-yilda 7 414 nafar shaxs) korrupsiyaga oid jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan javobgarlikka tortilganlar shaxslar soni 879 nafarga yoki 12 foizga kamaygan. Shu kabi, 2023-yilda sudlar tomonidan ayblovlari hukmi chiqarilgan korrupsiyaga oid jinoyat ishlari soni 4 128 tani tashkil qilib, 2022-yilga (4 607 ta) nisbatan 479 taga yoki 11 foizga kamaygan. Javobgarlikka

tortilgan 6 535 nafar shaxsning 1299 (1482) nafari yoki 20 foiziga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan.

2023-yilda jinoyat turlari bo'yicha quyidagi holatlar qayd etilgan: o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toroj qilish (167-modda) – 3587 ta; firibgarlik (168-modda) – 935 ta; pora olish (210-modda) – 142 ta; pora berish (211-modda) – 1009 ta; hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste'mol qilish – 200 ta; mansab soxtakorligi – 101 ta [3].

Korrupsiyaga qarshi kurashishning eng samarali yo'li – jamiyatda korrupsiyaning paydo bo'lishiga sabab bo'layotgan shart-sharoitlar va omillarni chuqur tahlil qilish hamda ularni tizimli bartaraf etishdan iborat. Korrupsiyaga olib keluvchi sabablar va sharoitlarni ilmiy asosda o'rganish orqali uning ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy ildizlarini aniqlash mumkin. Faqat ushbu omillarni to'g'ri tahlil qilib, ularning ta'sir doirasini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqilsa, korrupsiyaning tarqalishini samarali cheklash va uning salbiy oqibatlarini kamaytirishga erishish mumkin. Bunday yondashuv tizimli profilaktik choralarni joriy etish, qonuniy mexanizmlarni takomillashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samaradorligini oshirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish kabi kompleks tadbirlarni o'z ichiga oladi. Shu tariqa, korrupsiyaga qarshi kurashishda sabab va sharoitlarni o'rganish ilmiy asoslangan yechimlarni ishlab chiqish uchun zarur shart hisoblanadi.

Jinoyatchilikning kelib chiqishida muhim rol o'ynaydigan sabab va sharoit o'zaro chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham bu holat "kriminogen-determinant" deb e'tirof etilgan. Zotan, har qanday sharoitning o'zi jinoyatchilik va jinoyatni yuzaga keltirmaydi. Sharoit mavjud bo'lgan holda biror-bir jinoyatchilik sababsiz sodir bo'lmaydi. Sabab, o'z mazmuniga ko'ra, ijtimoiy-psixologik holat bo'lsa, sharoit iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan yuzaga keluvchi holat hisoblanadi [3].

I.Ismailov va boshqalar korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning determinantlarini shartli ravishda uch guruhga: iqtisodiy-ijtimoiy omillar; ma'naviy-ruhiy omillar; tashkiliy boshqaruv va huquqiy omillarga [16] ajratgan. Shuningdek, R.R.Gazimzyanov korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning asosiy determinanlariga quyidagilarni kiritgan:

1) huquqiy, 2) tashkiliy-boshqaruv; 3) tarbiyaviy; 4) mafkuraviy; 5) ijtimoiy-iqtisodiy; 6) axloqiy-psixologik; 7) ijtimoiy-siyosiy va boshqalar [5].

I.Ismailov va R.R. Gazimzyanov tomonidan korrupsiya bilan bog'liq jinoyatlarning determinantlari turli guruhlariga ajratilgani ushbu muammoni kompleks ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Har ikki muallif iqtisodiy-ijtimoiy, axloqiy va tashkiliy-boshqaruv omillarini qayd etgan bo'lib, bu korrupsiyaning turli sohalardagi ildizlarini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, ularning yondashuvlarida muayyan farqlar mavjud. Masalan, I.Ismailov korrupsiyaning ma'naviy-ruhiy omillarini alohida ta'kidlagan, bu shaxsning ichki holati va shaxsiy omillarga ahamiyat qaratishini ko'rsatadi. R.R.Gazimzyanov esa kengroq tahlilni taklif etib, tarbiyaviy va mafkuraviy omillarni alohida ajratib ko'rsatadi, bu esa ta'lim, tarbiya va jamiyatdagi g'oyalar ta'sirini chuqurroq o'rganishga imkon beradi. Shuningdek, R.R. Gazimzyanov tomonidan ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy omillar alohida ta'kidlangani korrupsiyani nafaqat iqtisodiy yoki shaxsiy masala, balki jamiyatdagi siyosiy va mafkuraviy jarayonlar bilan bog'liq muammo sifatida ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, I.Ismailovning tasnifi soddalashtirilgan bo'lib, korrupsiyaning barcha ildiz omillarini qamrab olmasligi mumkin. Gazimzyanovning klassifikatsiyasi esa chuqurroq va ko'p qirrali, biroq uning kengroq bo'lishi amaliyotda qo'llashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Xulosa qilib aytganda, I.Ismailov va R.R. Gazimzyanovning yondashuvlari bir-birini to'ldiruvchi xarakterga ega bo'lib, korrupsiyani kompleks tarzda tushunish uchun ularni o'zaro qiyoslab va integratsiyalashtirib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Boshqa bir muallifning fikricha, korrupsiyaga yo'l ochadigan omillar sirasiga hokimiyat organlari tizimining murakkabligi, buyruqbozlik taomillarining ko'pligi, davlat hokimiyati organlari apparatining faoliyati ustidan tashqi va ichki nazoratning yo'qligi kabi holatlarni kiritish mumkin. Tashkiliy tushunmovchiliklarni fuqarolarning korrupsion xulq-atvorini rag'batlantirishdan farqlash ba'zan juda qiyin kechadi. Taqiqlar, ruxsat berish taomillari sonining haddan tashqari ko'pligi, davlat hokimiyati organlari faoliyatiga jalb qilingan fuqarolarning

manfaatlarini himoya qilish mexanizmi va huquqiy asoslarining yo'qligi ham korrupsiyaga yo'l ochadi [8].

A.A.Zvyaginining aytishicha, mamlakatda mustaqil iqtisodiy faoliyat yurituvchi subyektlar ustidan davlat boshqaruv organlari ortiqcha nazoratining mavjudligi davlat xizmatchilariga o'z manfaatini ko'zlab mansabini suiiste'mol qilishi uchun sharoit yaratadi. Holbuki, bu fikr to'g'ridir, chunki "iqtisodiyotni erkinlashtirish" va "xususiy sektorda davlat nazoratini qisqartirish" bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatlaridan biri hisoblanadi [7].

Ushbu nuqtayi nazar bozor iqtisodiyotining asosiy qonuniyatlariga mos keladi, chunki "iqtisodiyotni erkinlashtirish" va "xususiy sektorda davlat nazoratini qisqartirish" samarali iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi uchun muhim omillardan hisoblanadi. Davlat organlari tomonidan ortiqcha nazorat qilinayotgan hollarda, korrupsiyaviy holatlarning kelib chiqishi ehtimoli yuqori bo'ladi, chunki boshqaruv vakolatlarining yuqori darajada konsentratsiya qilinishi davlat xizmatchilarining mansabdorlik suiiste'mollari uchun imkoniyat yaratadi. Shu munosabat bilan bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki muvozanatli bo'lishi kerak, bu esa davlat nazoratini to'g'ri tashkil etish, ortiqcha byurokratiyadan qochish va iqtisodiy subyektlarning erkinligini ta'minlashni talab qiladi. Bunday yondashuv korrupsiyaning oldini olish va sog'lom iqtisodiy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Olimlarning fikricha, korrupsiyani sodir etuvchi va unga buyurtma beruvchi o'rtasida ikki tomonlama xohish-irodaning mavjudligi — jamiyatda korrupsiyaning rivojlanishiga imkon yaratuvchi salbiy ijtimoiy-psixologik omillardan hisoblanadi. Shuning uchun korrupsiyaning sodir etilishiga imkon berayotgan psixologik omillarga qarshi kurashishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- davlat xizmatiga kadrlarni tanlashda yagona psixologik tanlov tizimini ishlab chiqish;
- davlat xizmatchilarini tayinlashda psixodiagnostik usullar (psixologik testlar va boshqalar)dan keng foydalanish;
- ushbu chora tadbirlarni amalga oshirishda malakali psixologlar xizmatidan keng foydalanish [15].

Shu bilan birga, korrupsiyaning yuzaga kelishiga va rivojlanishiga siyosiy hamda boshqaruv bilan bog'liq omillar ta'sir ko'rsatmoqda.

Xususan, yevropalik mutaxassis R.Klitgardning ta'kidlashicha, mansabdor shaxsning biror xo'jalik subyektiga zarur xizmatni ko'rsatish yoki ma'lum imtiyozni yaratib berishdagi "yakka hokimligi" ustidan nazorat-ning yo'qligi korrupsion kelishuvga olib kelishi mumkin [2].

K.I.Golovshinskiyning aytishicha, davlat boshqaruv organlarida "qonunosti aktlari"ni ishlab chiqish jarayonining to'liq nazorat qilinmasligi natijasida amaldagi qonunchilikda korrupsiogen, ya'ni korrupsiyaga sharoit yaratuvchi huquqiy normalar shakllanadi. Natijada qonunchilikda noaniq va tushunish qiyin bo'lgan huquqiy normalar va ko'rsatmalar yuzaga kelishi mumkin, bu esa, mansabdor shaxslar uchun fuqarolarni qo'rqitish va pora olishga sharoit yaratadi [6].

Davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonidagi quyidagi ijtimoiy omillar korrupsiyaning sodir etilishiga sharoit yaratishi mumkin:

- davlat boshqaruv organlarida "ruxsat berish" tamoyiliga asoslangan mutlaq xizmat ko'rsatish turining mavjudligi;
- fuqarolarning "davlat xizmati"dan foydalanish huquqlarini bilmasligi;
- davlat boshqaruv organlaridagi mansabdor shaxslarning fuqarolarga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlar haqida ma'lumotga ega emasligi;
- davlat boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari tomonidan xizmat majburiyatlari va fuqarolar huquqlari haqidagi ma'lumotlarning yashirilishi.

Shuningdek, vakolat, hokimiyat, o'zboshimchalik, shaxsiy manfaat, suiiste'molchilik, jamiyat va davlat oldida hisob bermaslik [11] kabilar ham korrupsiya bilan bog'liq jinoyatchilikning omillari sifatida ta'kidlangan.

V.V.Merkurishin bugungi kunda korrupsiyaning sodir etilishiga imkoniyat yaratayotgan asosiy shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni sanab o'tgan:

- davlat boshqaruv organlari ustidan jamoatchilik nazoratining sustligi;
- davlat boshqaruv organlarida byurokratik tuzumga xos salbiy illatlar saqlanib qolinganligi;
- o'tish davrida duch kelingan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning to'liq hal qilinmay qolib ketganligi [10].

Tahlil natijalariga ko'ra, ushbu sohalarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati samarali tashkil etilmaganligi, aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda ortiqcha byurokratik to'siqlar o'rnatilganligi, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarda korrupsiya omillarining mavjudligi, davlat xaridlarini amalga oshirishdagi qonunbuzilishi holatlari hamda raqamlashtirish ishlarining yetarli darajada emasligi korrupsiya omillarining saqlanib qolishiga sabab bo'layotganligi aniqlangan [3].

Shu bilan birga, o'tkazilgan ijtimoiy so'rov orqali aholining ushbu turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablariga doir fikrlari o'rganilgan. Jumladan, "Respublikada korrupsiyaning paydo bo'lishida sabab nima deb o'ylaysiz?" degan savolga, respondentlarning 21 foizi iqtisodiy (masalan, mukofotlanishning past darajasi, ijtimoiy himoya institutlarini amalga oshirish mexanizmining shakllanmaganligi) deya javob bergan, shuningdek, mansabdor shaxslar faoliyatining ochiq va shaffof emasligi – 18 foiz, huquqiy madaniyatning pastligi – 16 foiz, mansab qoidabuzarliklari uchun javobgarlik choralarining qo'llanilmasligi – 15 foiz, mansabdor shaxslar faoliyatining tartibga solinish darajasining pastligi – 14 foiz, jamoatchilik nazorati institutining shakllanmaganligi – 9 foiz va ichki nazoratning kuchsizligi – 7 foiz deb hisoblashgan.

Jinoyatchilik, shu jumladan korrupsiya muammosiga doir maxsus kriminologik adabiyotlar tahlili korrupsiyani o'zining tabiiy mahsuli sifatida belgilovchi sabablar va shart-sharoitlar (omillar)ning ayrim guruhlarini qayd etish imkonini beradi. Ijtimoiy hayot mazmuni yoki sohalariga ko'ra bunday omillar qatoriga huquqiy, tashkiliy-boshqaruv, tarbiyaviy, mafkuraviy, ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa sabablar va shart-sharoitlar kiradi [4]. Mazkur sabab va shart-sharoitlarni V.N. Kudryavsev va V.Ye. Eminov[9], M.S. Strelnikov [13], T.N. Timina [14], R.R. Gazimzyanov[5] ham o'zlarining tadqiqot ishlarida ilgari surib, ilmiy asoslantirib berishgan.

Yu.S. Pulatov va G.A. Alimov esa, respublikada korrupsiyaning paydo bo'lishida sabab va sharoitlar sifatida quyidagilarni e'tirof etishgan:

hokimiyat va iqtisodiyotning birlashuvi; mas'ul mansabdor shaxslarning qonunlarni mensimasligi;

xizmatchilarning mehnati sharoiti davlat

tomonidan munosib ravishda ta'minlanmasligi;

vazirliklar va idoralar tomonidan xo'jalik faoliyatini nazorat qilish uchun turli huquqlarga ega bo'lishdagi lobbizm;

barcha darajadagi rahbarlarning qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga emas, balki bevosita o'z boshliqlariga bo'ysunishining an'ana sifatida qolib kelayotganligi;

aholining huquqiy madaniyati rivojlanmaganligi [12].

Korrupsiyani belgilovchi huquqiy omillar qatoriga aksariyat mutaxassislar ayrim faoliyat sohalarida huquqiy jihatdan lozim darajada tartibga solinmaganligi va amaldagi qonun hujjatlarida mavjud kamchiliklarni kiritadilar. Ular orasida quyidagi kamchiliklar ayniqsa ko'p qayd etiladi, ya'ni:

davlat hokimiyati va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining xizmat vakolatlari lozim darajada tartibga solinmaganligi;

korrupsiyaning muayyan ko'rinishlari uchun amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik samarali emasligi;

korrupsiyaga, shu jumladan siyosiy tushdagi korrupsiyaga qarshi kurashga qaratilgan kompleks huquqiy bazaning mavjud emasligi.

Korrupsiyani belgilovchi tashkiliy-boshqaruv omillari guruhi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

vakant oliy davlat lavozimlarini band etishga tanlovlar soni ko'p emasligi, professional xizmatchilar va siyosiy belgiga ko'ra tayinlanadigan amaldorlar tizimining mavjudligi; siyosat subyektlari ustidan samarali moliyaviy va o'zga nazorat mavjud emasligi;

davlat xizmatining beqarorligi; davlat hokimiyati organlarida tegishli lavozimni band etish uchun saylov yoki tanlov o'tkazish jaryonida moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi maxsus mustaqil xizmatlar mavjud emasligi;

korrupsiyaga qarshi kurashda davlat organlari faoliyatining samarali emasligi.

Korrupsiyani belgilovchi mafkuraviy va tarbiyaviy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

fuqarolik jamiyati siyosiy madaniyatining shakllanmaganligi. Bu, avvalo, saylov jaryonida aks etadi, saylovchilarning bir qismi o'z ovozlari oz miqdordagi pul summalar yoki moddiy qimmatliklar evaziga beradilar;

ta'lim tizimida yosh avlodni korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash mavjud emasligi yoki yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi;

ommaviy axborot vositalari aholini korrupsiyaga qarshi ruhda tarbiyalash borasida lozim darajada ish olib bormayotgani.

Korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy omillari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

byudjet mablag'larini taqsimlash sohasi korrupsionerlar uchun yana bir qulay zamin bo'lib, eksklyuziv huquqlar berish (imtiyozlar, shu jumladan eksport va import, soliqlar bo'yicha imtiyozlar berish, litsenziyalash va sh.k.) ham korrupsiyaga keng yo'l ochishi;

amaldorlarning tijorat banklari bilan hamkorligi;

huquqni muhofaza qiluvchi organlar va iqtisodiy jinoyatchilikning birikishi va korrupsiyaga qarshi kurashga jiddiy to'sqinlik qiluvchi muhitni yaratishi.

Korrupsiyaning ijtimoiy-psixologik omillari. Jamiyatdagi kriminallashtirish jarayonlari kishilar ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, ularning huquqiy ongi buzilishiga sabab bo'ladi. U bir-birini istisno etuvchi ikki jihat – huquqqa ijobiy va salbiy munosabatlarning chatishuvi bilan tavsiflanadi. Ayni bir subyektlar ongida bunday tendensiyalarning mavjudligi aholining turli guruhlari qadriyatlarga munosabatda to'g'ri mo'ljallarni yo'qotganidan dalolat beradi. Huquqiy nihilizm – huquqqa salbiy munosabat, uning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning samarali vositasi bo'lib xizmat qilish imkoniyatiga ishonchsizlik kuchayib boradi.

Jamiyatda mavjud bo'lgan ma'naviy-psixologik muhit hokimiyat organlaridagi korrupsiya darajasiga, hech shubhasiz, jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Aksariyat amaldorlar o'zlarini korrupsion qaror qabul qilish yoki qabul qilmaslik o'rtasida yo'l tanlashga majbur etadigan holatlarga ertami, kechmi albatta duch keladilar. Bunday holatlarga fuqarolar bilan bevosita aloqada ish olib boruvchi quyi va o'rta bo'g'in amaldorlari ayniqsa ko'p duch keladilar (turli litsenziyalar, ruxsatnomalar, ma'lumot-nomalar berishda va sh.k.). Bunday holatlarning paydo bo'lishi yuqorida zikr etilgan korrupsiyani vujudga keltiruvchi muammolar va shart-sharoitlarga ham, ijtimoiy-psixologik omillarga ham bog'liqdir. Ularning tabiatini tushunish korrupsiyaga qarshi kurashish uchun nima qilish kerakligini aniqlashni osonlashtiradi.

Mamlakatda korrupsiyaning paydo bo'lish sabablari haqida aholining fikri o'rganilganda, ularning fikricha, mansabdor shaxsga pora

berishga majburlovchi sabablar sifatida 48 foiz mansabdor shaxsning ishni paysalga solishi, 26 foiz masalani qonuniy hal qilishda vaqt va imkoniyatning yo'qligi, 15 foiz pora berish oddiy hodisa ekanligi va 11 foiz mansabdor shaxs tomonidan ishning yanada sifatli va samarali bajarilishiga erishish ko'rsatilgan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, korrupsiyani vujudga keltiruvchi va uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi shart-sharoitlar va omillar o'zaro aloqadorlikda harakat qilib, bir-birining mavjudligini ta'minlab jamiyat hayotining turli sohalariga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Korrupsiyaga oid jinoyatlarning sabablari va shart-sharoitlarini ilmiy asosda o'rganish uning jamiyatga salbiy ta'sirini samarali kamaytirish uchun muhim ahamiyatga egadir. Tadqiqotlarda qayd etilganidek, korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillar ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy va huquqiy determinantlardan iborat bo'lib, ularning barchasi o'zaro chambarchas bog'liqdir. Korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy yo'li – bu uni keltirib chiqaruvchi sabablarni kompleks tahlil qilish va ularni tizimli bartaraf etishdan iborat. Iqtisodiy-ijtimoiy omillarni samarali kamaytirish, huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish korrupsiyaga qarshi kurashda asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy xususiyatlarga moslashtirgan holda joriy etish, korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yaratadi.

Umuman olganda, korrupsiyani yuzaga keltiruvchi sabablar va sodir etishga imkon bergan sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish orqali ushbu illatga qarshi samarali kurashish mumkin. Xususan, korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy tadqiqotlar natijalarini hisobga olish, ya'ni korrupsiyaga qarshi kurash strategiyasini samarali ishlab chiqish uchun ilmiy tadqiqotlar natijalari va zamonaviy kriminologiya yutuqlarini chuqur o'rganish zarur. Bunda quyidagi tadbirlar ahamiyatlidir:

Birinchidan, korrupsiyaning asosiy sabab va shart-sharoitlarini tahlil qilish. Ilmiy tadqiqotlar orqali korrupsiyaga yo'l ochuvchi omillarni aniqlash, ularning ichki va tashqi determinantlarini klassifikatsiya qilish strategi-

yaning ilmiy asoslangan bo'lishiga yordam beradi. Masalan, korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'naviy, huquqiy va boshqa omillarini aniqlash orqali har bir omilga mos profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish mumkin.

Ikkinchidan, korrupsiyaning milliy xususiyatlarini o'rganish. Har bir mamlakatda korrupsiyaning namoyon bo'lish shakllari va sabablari turlicha bo'lgani bois, ilmiy tahlillar natijasida mahalliy xususiyatlarga mos keladigan tadbirlar ishlab chiqilishi lozim. O'zbekiston sharoitida, masalan, jamoatchilik nazoratining sustligi va byurokratiyaning yuqori darajada ekanligi korrupsiyaning keng tarqalishiga yordam beruvchi omillardan sanaladi.

Uchinchidan, xalqaro tajribani o'rganish va tatbiq qilish. Xalqaro tajriba, masalan, Singapur, Shvetsiya va Finlyandiya kabi mamlakatlarning korrupsiyaga qarshi samarali mexanizmlarini o'rganish va ularni milliy qonunchilik va boshqaruv tizimiga moslashtirish imkoniyatlarini

tahlil qilish muhim. Bu mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashning ilg'or mexanizmlari, masalan, shaffoflikni ta'minlash va davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish bo'yicha amaliy qadamlar mavjud.

To'rtinchidan, tadqiqotlar natijalaridan amalda foydalanish mexanizmini yaratish. Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha ilmiy natijalarning davlat siyosatini belgilashda qo'llanishi uchun doimiy ishlovchi maxsus organlar tashkil etish kerak. Bu organlar ilmiy izlanishlarni amaliyot bilan bog'laydigan ko'priksifatida faoliyat ko'rsatishi lozim.

Beshinchidan, korrupsiyaga qarshi tadbirlarning samaradorligini baholash. Ilmiy tadqiqotlar korrupsiyaga qarshi amalga oshirilgan tadbirlarning samaradorligini baholash uchun qo'llanishi kerak. Bu chora-tadbirlarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda ularni takomillashtirish uchun ilmiy yo'naltirilgan baholash tizimini joriy etishni nazarda tutadi.

Foydalanilgan manbalar

1. Kriminologiya: Darslik. / Professor Z.S. Zaripovning umumiy tahriri ostida. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2008. – B. 61.
2. R. Klitgaard Gifts and Bribes/Zeckhauser R.J (Eds)Strategy and Choice. – Cambridge: MIT Press, 1991
3. <https://anticorruption.uz/storage/lt9lqAa1tum639l22ZUi1mhXXKWj4s-metabWlsbGI5lG1hcnV6YV9jb21wcmVzc2VklNBkZg==-.pdf>
4. Алауханов Е.О., Турсынбаев Д.Е. Борьба с коррупцией в государственных органах Республики Казахстан: Учебное пособие / Под ред. Е.О.Алауханова. – Алматы: КазАТК, 2008. – С. 182-187.
5. Газимзянов Р.Р. Коррупционная преступность в Республике Татарстан на рубеже веков (криминологическое исследование): Автореф. дис. ... канд. юрид. наук. – Нижний Новгород, 2005. – С. 32.
6. Головщинский К.И. Диагностика коррупциогенности законодательства. – М., 2005. – С. 25-29.
7. Звягин А.А. Факторы роста коррупции и теневой экономики. – М.: Центр проблемного анализа и государственно-управленческого проектирования, 2009. – С.34.
8. Zufarov R.A., Axrarov B.J., Mirzayev U.M. Korrupsiya. Qonun. Javobgarlik: Monografiya / Mas'ul muharrir prof. M.X.Rustambayev. – T.: TDYUI nashriyoti, 2011. – B. 154.
9. Кудрявцев В. Н., Эминов В. Е. Криминология: Учебник. 5-е издание. – М., 2013. – С. 53.
10. Меркуришин В.В. Борьба с транснациональной преступностью. – М.: Амалфея, 2003. – С. 208.
11. Salayev N., Hidoyatov B., Tulaganova G., Niyozova S. Korrupsiyaga qarshi kurash: O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDYUU, 2018. 7-b.
12. Пулатов Ю.С., Алимов Г.А. Квалификация и предупреждение коррупционных преступлений: Монография. – Т., 2016. – С. 60.
13. Стрельников М. С. Детерминанты преступности коррупционной направленности // Молодой ученый, 2016. – №14. – С. 472-474. – URL <https://moluch.ru/archive/118/32831/> (дата обращения: 03.06.2019).
14. Тимина Т. Н. Факторы совершения преступлений коррупционной направленности // Криминология: вчера, сегодня, завтра, 2011. – № 4. – С. 64–69.
15. Шепоткин В.Г. Психология предварительного расследования. –Т. 2005. – С.62.
16. Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar profilaktikasi: O'quv qo'llanma / I.Ismoilov, J.S.Muxtorov, S.B.Xo'jaqulov; mas'ul muharrir prof. Q.R.Abdurasulova. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2017. – 9-b.